

Andijon viloyati statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
2286,8 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi – **3,7 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
– **74,2 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **22,0 %**

Andijon viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatida jami 2286,8 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **85,5** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,7 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 martani tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **74,2 %**i yoki **1697,8** mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **126,5 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **22,0 %** yoki **503,5** mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **86,4 %** ga kamaydi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 85,5 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 1,6 m
- ulushi - 3,7 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 1697,8 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 126,5 %
- ulushi - 74,2%



Norasmiy sektor

- hajmi - 503,5 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 86,4 %
- ulushi - 22,0 %

Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **72,3** %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5%** punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **9,5** % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6%** punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **18,2** % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,9** % punktga ko'paydi.



Yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Mos ravishda, yirik qurilish tashkilotlari ulushi 3,7% ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **74,2** %ni (**9,3** % punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **22,0** %ni (**10,4** punktga kamaydi) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, ulushi



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **9,1%**ni tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **89,3 %** (4,4 punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **1,6 %**ni (4,5 % punktga kamayish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,0%** punktga ko'paydi. Qolgan **84,2%**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,0 %** punktga kamaydi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2019 yil yanvar-iyul oylarida)

	Jami, mlrd.so`m	O`sinh sur`ati, %da	shu jumladan, mulkchilik shakllari bo`yicha	
			Davlat, %da	Nodavlat, %da
Viloyat bo`yicha:	2286,8	114,3	5,9	94,1
➤ Andijon shahar	903,5	107,9	5,9	94,1
➤ Xonobod shahar	67,0	1163,5	0,0	100,0
➤ Andijon tuman	249,6	120,4	4,1	95,9
➤ Asaka tuman	108,4	128,9	4,7	95,3
➤ Baliqchi tuman	69,1	218,6	7,3	92,7
➤ Bo`z tuman	82,9	125,5	6,1	93,9
➤ Buloqboshi tuman	29,9	131,0	17,0	83,0
➤ Jalalquduq tuman	80,8	122,0	29,5	70,5
➤ Izboskan tuman	97,8	111,5	5,2	94,8
➤ Ulug`nor tuman	41,8	135,3	45,6	54,4
➤ Marxamat tuman	85,9	105,3	5,9	94,1
➤ Oltinko`l tuman	123,9	104,5	4,1	95,9
➤ Paxtaobod tuman	74,8	129,3	6,8	93,2
➤ Xo`jaobod tuman	65,4	100,0	7,8	92,2
➤ Shaxrixon tuman	139,2	111,4	3,6	96,4
➤ Qo`rg`ontepa tuman	66,8	1085,1	7,6	92,4

2019 yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari tarkibi ulushi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1697,8** mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **74,2%**) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **126,5** %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **22,0** %ni yoki **503,5** mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **86,4** %ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **85,5** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **3,7** %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 martani tashkil etdi.

Yanvar- iyul oylarida qurilish ishlari o`shish sur`atlari, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo`yicha tarkibida yuqori ko`rsatkich Andijon shahri (hududdagi qurilish hajmining **39,6** %ini tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan **107,9** %ni tashkil etdi) va Andigon tumanida (mos ravishda, **10,9** % va o`tgan yilning shu davriga nisbatan **120,4** % punktga ko`paydi) kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari ulushi, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanidagi (hududdagi qurilish hajmining **16,4** %ini tashkil qilib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 marta ko'p) to'g'ri keldi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`sinh sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da),



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`sinh sur`ati Andijon shahrida «Andigondavmaxsus pudrat» davlat unitar korxonasi (**1,8 marta**) kuzatildi. Bu korxonadan Andijon viloyati irrigasiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, Andijon viloyati daryo qirgoqlarini mustahkamlash, Andijon viloyatidagi chegara oldi hududlarida rokat yo'l qurish ishlari olib borildi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Andijon viloyati qurilish ishlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida katta ulushini asosan Andijon shahrida (**39,6 %**), Shaxrixon (**6,1 %**) va Andijon tumanlarida (**10,9 %**) kuzatildi.



Andijon viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37